

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ZIGMUND FREYD
(1856-1939)

Mening dunyom befarqlik
ummonida suzib yuruvchi
kichik og'riq oroli!

2022

MAY

№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
12-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-12**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-12**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

1. Gayberdiyeva Nodira Toxir qizi	
RANGLARNING TUS BIRIKMALARI O`RTASIDAGI O`ZARO BOG`LIQLIGI.....	7
2. Haydarov Qutlug` Hamdamovich	
BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABLARI O`QUV JARAYONI	9
3. Ilhomova Shahnoza Faxriddni qizi	
MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING XUSUSIYATI.....	11
4. Sayfullayev Shaxzod Baxtiyor o`g`li	
TEMURIYLAR DAVRI SAN`ATI VA MADANIYATI	13



МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

RANGLARNING TUS BIRIKMALARI O`RTASIDAGI O`ZARO BOG`LIQLIGI

Gayberdiyeva Nodira Toxir qizi

Guliston davlat universiteti 2-bosqich talabasi

+998909353507

gayberdiyevanodira@gmail.com

Annotatsiya: Voqiylikni bo‘yoqlar vositasida tasvirga tushirar ekansiz, ranglarning bir–biriga ta‘sirini nazarda tutmoq va ranglar uyg‘unligi asosida tasvirlamoq zarur. Shunisi muhimki, tasvirda to‘g‘ri topilgan ranglar uyg‘unligi, go‘zallikni anglay olish bilan birga, nafis asar go‘zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi.

Kalit so‘zi: tasviriy san‘at, rassom, madaniyat, qobiliyat, mehnat, muloqat, tabiat, gozallik.

Odatda yorqinligi va tusi bir–biriga yaqin bo‘lgan ranglar o‘zaro birlashadilar. Ranglar o‘zaro tuslar orqali birlashganda, ular alohida jaragdorlik kasb etib sifat o‘zgarishlariga yuz tutishi ko‘zga tashlanadi. Umumiy “kolorit” dan ajralib qolgan rang nomuvofiq–begona bo‘lib ko‘rinadi va tasviriy asar yaxlitligiga putur etkazadi. Tasviriy asar barcha ranglarning o‘zaro bog‘liqligi asosida quruladi. Kolorit (italyancha Colonio, lotincha color–rang, bo‘yoq) – tasviriy va amaliy san‘at asarlarida voqiylikni real va ifodali tasvirlashda ranglarning o‘zaro munosibligi. Tasvirdagi turli ranglarning garmonik, go‘zal tus birikmalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi “kolorit” deb ataladi.

Voqiylikni ta‘sirli tasvirlash vositasining tarkibiy qismi bo‘lgan kolorit asarning g‘oyasi, mazmuni, davri uslubi hamda muallifning shahsiga bog‘liq. Tarixda voqiylik tasvirida mahalliy ranglar ozmi – ko‘pmi cheklanib, ramziy ranglardan ko‘proq foydalanish (o‘rta asrlar san‘atida) va voqelikni barcha bo‘yoqlarda (uning rang, tus, nur soya va boshqalardan foydalanib) rangdor ifodalash an‘anasi shakllangan. Kolorit ranglar uyg‘unligiga ko‘ra, iliq (qizil, ssriq, zarg‘aldoq) yoki sovuq (ko‘k, yashil, binafsha), sokin va jiddiy, och yoki to‘q, rangdorligiga ko‘ra, yorqin hira va boshqa bo‘lishi mumkin. Kolorit bizga olamning boy, rang – barang va go‘zalligini ochib beradi. U musavvirga tasir holitini ifoda qilishida yordam beradi. Kolorit osoyishta, zavqlantruvchi, havotirli, mayus bo‘lishi mumkin, shuningdek illiq va sovuq, yorqin va bo‘g‘liq bo‘ladi. Rangtasvir san‘ati – rang va nur uyg‘unligi san‘atidir.

Voqiylikni bo‘yoqlar vositasida tasvirga tushirar ekansiz, ranglarning bir – biriga ta‘sirini nazarda tutmoq va ranglar uyg‘unligi asosida tasvirlamoq zarur. Shunisi muhimki, tasvirda to‘g‘ri topilgan ranglar uyg‘unligi, go‘zallikni anglay olish bilan birga, nafis asar go‘zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi. Amaliy san‘at turlari naqqoshlik, kulolchilik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, zargarlik, zardo‘zlik, chitgarlik va boshqalarda kolorit muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa naqqoshlik san‘atida kolorit muhim o‘rin tutadi. Naqqoshlik maktablarida har bir usullarning o‘ziga hos koloritlariga ega.

Xorazm naqqoshlik maktablarida va me‘moray naqishlaridagi umumiy rang ya‘ni koloriti moviy bo‘lib, kishiga salqinlik, tinglantruvchi ya‘ni simmetrik ranglardan foydalaniladi. Ayniqsa me‘moriy naqishlarini kuzatar ekanmiz havo rang koloritda bezalgan naqshlar o‘ziga hos joziba beradi. Xiva naqqoshlik maktabida asosiy kolorit sovuq ya‘ni moviy rangni egallaydi.

Toshkentlik naqqoshlik maktabida asosini yashil, jigarrang, va havo rang koloritda bezaladi. Asosan yashil koloritda Jalil Hakimov ko‘p ishlagan. Naqish Kompozitsiyalari ranglari bir – biriga nafis, yaqin va juda aniqlikda bajarilgan. Toshkentlik naqqoshlik maktabining hozirdagi vakili Mahmud Turaev pushti, havo rang binafsha, yashil, jigarrang kabi koloritlarda bajaradi. Har bir koloritda bajarilgan naqishlari o‘ziga hos joziba va ko‘rinishga ega. Ham to‘q, ham och rang koloritda bajarilgan. Tayir To‘htaho‘jaev o‘ziga hos jigarrang oltisimon rang koloritda binolar va buyumlarni mohirona bezagan. Naqish kompozitsiyalariga nazar solib qarasangiz iliq koloritdagi ranglar kishiga ko‘tarinki ruh, bayramona kayfiyat uyg‘atadi. Farg‘ona naqqoshlik maktabining namoyondasi Saidahmad Mahmudovni naqsh kompozitsiyalarida koloritga umuman



bo‘ysinilgan bo‘lsada, lekin ko‘pgina naqishlarda zamini iliq rang bilan sovuq ranglar kontrasti o‘yini orqali bajarilgan. Ushbu nomoyonda iliq va sovuq ranglar zaminida contrast berilib, har bir zamin ranglari o‘ziga hos jozibaga ega. Ushbu naqishlar Farg‘ona vodiysi tabiatga hos koloritda bajarilgan. Burglar, gullar ham ilik ham sovuq rangda bo‘yalib pardozi berilgan.

Anvar Ilhomov ustozlari Jilil Hakimovning an‘ana asosida davom ettirib yashil va boshqa koloritlarda naqshu –nigoralar ishlab kelmoqdalar. Ama‘liy san‘at turlari naqqoshchilik, kulolchilik, kashtachilik va boshqalarda kolorit birorta rang masalan zangori, yashil, qizil, jigarrang, binafsha, pushti kabilarning xukumronligiga asoslanadi, qolgan ranglar unga bo‘ysundiriladi.

Chunonchi jigarrang muhitida qolgan hamma rang turlari jigarrang bo‘ysindiriladi. Kolorit biror narsa yoki binolarning o‘ziga hos tomonlari mazmuini ham ataladi. Badiiy asarning o‘ziga hos xususiyatlari ya‘ni davr, milliylik, psixologik holatni xullas voqiylik va boshqalarni o‘ziga hos tomonlari yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda kolorit asar mazmunini va g‘oyasini musiqadagi dirijor vazifasini bajaradi. Kolorit tushunchasini qiyomiga chiqarib o‘rgatish tayyorlayotgan kadrlarimizni kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakillantrishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tasviriyl san‘at ta‘limi konsepsiyasi. - Toshkent.1995.
2. Tasviriyl san‘at o‘qitish metodikasidan amaliyl mashg‘ulotlar. R. Hasanov. Toshkent -2006.
3. Rangtasvir Toshkent “Innovsiya- Ziyo”, 2019yil. S. Abdurasulov. N. Tolipov.



BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI O'QUV JARAYONI

Haydarov Qutlug' Hamdamovich

Jizzax Davlat pedagogika instituti

“Musika ta'limi va san'at” yo'nalishi

Magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalar musiqa va san'at maktablari, ularda olib borilayotgan o'quv jarayonlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: musiqa, madaniyat, maktab, tarbiya, pedagog, qiziqish, ijrochilik, cholg'u, xonandalik.

Musiqiy tarbiya insonni go'zallikka yetaklovchi bir vosita bo'lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g'oyalarini umimlashtiradi. Inson hayotini musiqa san'atisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvda ham muhim o'rin o'ynaydi. Musika san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir.

Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umimlashgan holda ifodalanadi. Musika shakllari har bir davrning ma'naviy, ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida bolalarga musiqiy ta'lim va tarbiya beruvchi eng zaruriy bo'g'in bu bolalar musiqa va san'at maktablari sanaladi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari oldida turgan muhim tarbiyaviy faoliyat musiqiy-estetik tarbiyadir. Yosh avlodga musiqiy-estetik ta'lim berish, avvalo, muassasada o'tkaziladigan o'quvchilar his-tuyg'usini shakllantirishga asoslangan turli tadbirlarda, to'garak faoliyatida milliy-madaniy va tarixiy an'analarga, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Shu maqsadda o'quvchilar uylari va saroylari, bolalar va o'smirlar ijodiyot uylarida doirachilar, raqs, vokal-cholg'u, folklor, maqom, karnay-surnaychilar, ashula va raqs, o'zbek xalq cholg'u dastalari, xor studiyasi, qo'g'irchoq teatri, drama to'garagi, san'atsevarlar klublari tashkil etiladi.

Maktabdan tashqari ta'limning barcha yo'nalishlari va to'garaklaridagi o'quvchilarning ma'naviy fazilatlarini, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'alarimizga, umiminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanishi bilan belgilanadi.

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga ko'ra, ularning ijodiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan musiqa (fortepiano, torli cholg'ular, estrada cholg'u ijrochiligi, xalq cholg'ulari, damli va zarbli cholg'ular, an'anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akademik xonandalik, estrada xonandaligi) va san'at (xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at) yo'nalishlarida faoliyatini amalga oshiradi. Bolalar musiqa va san'at maktabida o'quvchilarga ta'lim berish yakka tartibda yoki bir xil yoshdagi va turli yoshdagi bolalar guruhlarida ularning qiziqishlariga ko'ra bir yoxud bir necha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, ushbu Nizomga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga hamda o'z ustaviga amal qiladi.

Bolalar musiqa va san'at maktabining asosiy maqsadi yosh avlodning musiqa va san'at turlariga qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an'alariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy va ma'rifiy saviyasini har tomonlama oshirishdan iborat.



Quyidagilar bolalar musiqa va san'at maktabining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- o'quvchilarning ma'naviy va estetik rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish; o'quvchilarning iste'dodini har tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish;
- o'quvchilarni milliy va jahon musiqasi, tasviriy san'atning yuksak namunalaridan va o'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalaridan bahramand bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratish; milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish;
- o'quvchilarga umumiy musiqa, xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlari bo'yicha bilimlarning boshlang'ich asoslarini o'rgatish orqali ularni musiqa va san'at olamiga jalb etish;
- iqtidorli o'quvchilarni musiqa va san'at yo'nalishlari bo'yicha o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida o'qishini davom ettirish uchun tayyorlash.

Bolalar musiqa va san'at maktabida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- O'quvchilar bilan guruh bo'yicha va yakka tartibda mashg'ulotlar olib borish;
- o'quvchilarning mustaqil ishi;
- nazorat darslari;
- akademik konsertlar, texnik sinovlar;
- mustaqil ravishda ishlangan ijodiy mahsulotlar ko'rgazmasi;
- ko'rik-tanlov, festival, ustoz saboqlari;
- sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlari.

Bolalar musiqa va san'at maktablari pedagoglari oldiga o'quv jarayoni davomida bir necha vazifalar qo'yilib, ulardan eng muhimi o'quv-tarbiyaviy ishlarni yuqori saviyada olib borish, ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'qitish vositalarini yaratishda faol qatnashishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning yangi tahriri. 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son Qonun
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to’g’risida” gi 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli qarori.
3. Boer B.H van. Historical dictionary of music of the Classical period. Lanham, 2012.
4. Gulnora Sharipova. G'ayrat Najmekdinov. «Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi» o'quv qo'llanma. “Turon-Iqbol” nashriyoti. Toshkent., 2014-yil
5. Ho'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. O'z.D.K.tahrir-nashriyot bo'limi. Toshkent., 2008-yil



MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING XUSUSIYATI

Ilhomova Shahnoza Faxriddni qizi

Jizzax Davlat pedagogika instituti

“Musika ta’limi va san’at” yo’nalishi

Magistranti

Annotatsiya. Musika tarbiyasi metodikasini egallash uchun maktab dasturida musikaning kiritilishi, musika san’atining tarbiyaviy imkoniyatlarini tarbiya obyekti sifatida zamonaviy o’quvchi shaxsini yaqqol tushunish talab etiladi. Tarbiyaning murakkab va ko’p qirrali vazifalarini hal etish uchun metodika fani o’quv rejalaridagi boshqa ko’pgina fanlardan foydalanadi. Tarixiy-nazariy turkum fanlar o’quvchilarga musika san’ati o’ziga xos xususiyatlarini tushunishga, musiqiy obrazlarda hayot voqealarining aks etilishini, musika ifoda vositalarini anglashga yordam beradi.

Kalit so’zlar: madaniyat, ma’naviyat, bahs-munozara, muammo, musika madaniyati, musiqiy bilim, tushuncha, malaka, ko’nikma, shakllanib, dunyoqarash.

Maktabda musika ta’lim-tarbiyasi inson ma’naviyatini shakllanti rish uchun xizmat qiladi. Zero, u eng avvalo musiqiy madaniyatlilik darajasini shakllantirishi bilan ahamiyatli. Madaniyat - ma’naviyat ko’rsatgichi sifatida keng qamrovli tushuncha bo’lib, bahs-munozaraga mavzu bo’ladigan muammolardan biridir. Musika madaniyatini to’g’ri yo’lga ko’yilishi tufayli insonda muayyan musiqiy bilim, tushuncha, malaka va ko’nikmalar shakllanib, ular o’z navbatida shaxsning musiqiy –ma’naviy dunyoqarashini tarkib toptiradi. Shaxsning musika madaniyati-qobiliyat, bilim, malaka, ko’nikma, musiqiy asarlarini baholay olish singari sifatlar majmuida namoyon bo’ladi, ma’naviy yuksalish omili bo’lib xizmat qiladi. Shu bois, tarbiyaning ushbu turini tarkib toptirishning eng avvalo oiladan boshlamoq maqsadga muvofiqdir.

Keyinchalik bu jarayon o’rta maktab, o’quv-tarbiyaning o’rta maxsus va oliy bosqichlarida takomillashtirib boriladi. Albatta, maktabda musiqani o’qitish metodikasi fani musiqiy madaniyatni tarkib toptirishda asos bo’lib xizmat qiladi. Mazkur kurs bolalar bilan musiqiy ishlar sohasida o’ziga xos tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ham bildiradi. Shu narsa aniqki, mustahkam ilmiy asosga ega, keng amaliyotga qo’llanib, sinab ko’rilgan va shu bilan birgalikda doimo takomillashib boradigan metodikagina samarali hisoblanadi. Musika o’qituvchisi har bir sinf o’quvchilarining o’ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini yaxshi bilmog’i lozim.

Ma’lumki “metodika”- bu pedagogikaning shunday qismidirki, didaktik printsiplar asosida qanday metod, usul yordamida o’quv-tarbiyaviy jarayon maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilib uning umumiy hamda alohida vazifalari hal etiladi. Masalan, qanday usulda, qaysi yo’l bilan musikaning tarbiyaviy ta’siriga erishmoq o’quvchilarning qiziqishini uyg’otish, kichik va o’rta sinf o’quvchilarida musika tinglashni tashkil etish, o’quvchilarni faol idrok etish malakasiga erishish masalalari hal etiladi. Shuning bilan birga metodika alohida masalalarni ham yoritadi. Musika o’qitish metodikasida tarbiya jarayoni har qanday ijtimoiy faoliyat singari tizimli va ilmiy boshqaruvni talab etishini alohida ta’kidlaydi.

Ta’kidlab o’tilganidek, musika o’qitish metodikasi pedagogik fanlar tizimiga kiradi va o’ziga nisbatan mustaqil o’ringa ega. U musika tarbiyasining mazmun va metodlarini takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o’rganadi. Musika o’qitish metodikasining mohiyati yosh avlodning tarbiyasida musika san’atining muhim roli va ahamiyatini anglatish bilan belgilanadi. Musika tarbiyasi metodik fan sifatida rivojlanishi jamiyatning madaniyat, musika san’ati, maktablar takomillashuvi bilan bog’liq ekanligini ko’rsatadi. Musika o’qitish metodikasi boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqdir. Metodika musiqashunoslik bilan bog’liq qaysikim, so’ngi paytlarda musika asarlarining tahlil etishni takomillashtirishga yana ham ko’proq e’tibor berilayotganligini ta’kidlash o’rinli.

Musiqashunoslik nazariyasi musika tarbiyasining mazmun va metodlarining ishlanmalarida bevosita ta’sir ko’rsatadi. O’zining muammolarini hal etishda metodika psixologiya faniga tayanadi. Masalan: o’quvchilar musika idroki rivojlanishini, ularning ijodiy, musiqiy qobiliyatlarini bola ruxiyati qonuniyatlarini bilmay turib anglab bo’lmaydi. Shuningdek metodika o’quvchilarga u yoki bu materialni, uning hajmi, metodlardan foydalanish samaralari masalalarini psixologiya bilan bog’liq holda hal etadi. O’quvchilarning kuylash malakalarini



ularning o‘ziga xos ovoz apparati tuzilishi masalalarini o‘rganishda metodika fiziologi ya sohasidagi tadqiqotlarga tayanadi. Musiqa o‘qitish metodikasi pedagogikaga tayanib tarbiyani ko‘pgina omillar bilan bog‘liq jarayon, deb qaraydi.

Kishining musiqa madaniyati nafaqat maktab ta’sirida shakllanadi, balki unda oila, ommaviy axborot, ijtimoiy munosabatlar tizimi katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga tabiiyki, aynan maktab o‘quvchilarining musiqiy qiziqish va qobiliyatlarining tarkib topishda, ularda musiqa madaniyati asoslarini shakllanishida maktab hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Musiqa o‘qitish metodikasi pedagogikaga, uning metodlarni aniqlashiga tayanadi. Metodlar ishlanmasi qo‘yidagi muammolar bilan bogliq: ularning musiqa tarbiyasi mazmuni bilan o‘zaro bogliqligi, o‘quvchilar ijodiyva musiqiy qobiliyatlarining rivojlanishi, musiqiy hotira va ovoz, musiqa idrokinin yosh va individual xususiyatlari, o‘quvchilar rivojlanishidagi turli musiqiy faoliyatlarning imkoniyatlari va boshqalar.

Metodika vazifasiga shuningdek, o‘quv-tarbiyaviy jarayonning turli shakllarini takomillashtirish ham kiradi. Jumladan, musiqa darslari, musiqadan fakultativ mashgulotlar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar (to‘garaklar, bayramlar, va h.k.). Xullas, maktabda musiqani o‘qitish metodikasi fani o‘z mohiyati va mazmuni jihatidan bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega. Musiqa ta’limi yangilanish yo‘liga kirayotgan ekan, bu fanning ahamiyati yanada oshib borishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova D. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. - T.: Iqtisod-moliya, 2008.
2. Sharipova G.. Musiqa va uni o‘qitish metodikasi (metodik qo‘llanma). Toshkent
3. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent – 1997.
4. Norova, S. U. (2021). Imam Abu Hamid Al-Ghazali. Teacher-Student Coaching Relations. The American Journal of Social Science and Education Innovations.
5. Норова, Ш. У. (2020). Повышение профессиональной компетентности путем Подготовки молодежи к хоровой деятельности. Наука, техника и образование.
6. Umirzakovna, N. S. (2021). WAYS TO IMPROVE LEARNING EFFICIENCY USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal.
7. Гулов, С. Н. (2018). РОЛЬ ЛИДЕРА НАЦИИ В РАЗВИТИИ ЭЛЕКТРОННЫХ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ. Вестник Таджикского национального Университета. Серия филологических наук.



TEMURIYLAR DAVRI SAN'ATI VA MADANIYATI

Sayfullayev Shaxzod Baxtiyor o'g'li

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

magistranti. Tel: 998946640046

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta Osiyoda ikkinchi Renessans deb ataladigan davr – Temuriylar davri madaniyati va san'ati haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lasiz. Bu davrda qurilgan ko'plab inshootlar bugungi kun me'morchiligi uchun dastur ul amal bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Renessans, Temuriylar, haykaltaroshlik, me'morchilik, Oqsaroy, peshtoq, gumbaz, majmua, Shahrison.

Tarixdan ma'lumki, XIV- XV asrlarda O'rta Osiyo zaminida temuriylar davri ilm-fan, adabiyot, san'at sohalarida yuksak bosqichiga ko'tarildi. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda namoyon bo'ldi. Shaxrisabzdagi Oqsaroy peshtoqida bitilgan “qudratimizni ko'rmoq istasang, biz qurgan binolarimizga boq!” degan yozuv Sohibqiron davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temur davrida Movarounnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar keng ko'lam kasb etadi. Ilk o'rta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo'lgan “Shahrison”dan ko'lam va mazmuni bilan farq qiluvchi “hisor” qurilishini Samarqand va Shahrissabzda kuzatish mumkin. Temur davrida Kesh shahar qurilishi yakunlandi. “Hisor”ning janubi-g'arbida hukumat saroyi Oqsaroy va atrofida rabotlar, bog'-rog'lar qurildi.

Barcha hukmdorlar singari Amir Temur ham saltanat poytaxti Samarqandni bezatishga alohida e'tibor berdi. Shaharda “Hisori”, qal'a, ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. Samarqandga kiraverishdagi Ko'hak tepaligida Cho'pon ota maqbarasi Ulug'bek davrida qurilgan bo'lib, bu inshootda mutanosiblik, umumiy shaklning nafisligi, bezaklarda ulug'vorlik uyg'unlashib ketgan. Temur davrida Samarqand Afrosiyobdan janubda mo'g'ullar davridagi ichki va tashqi shahar o'rnida qurila boshladi hamda bu maydon qal'a devori va xandok bilan o'ralib Hisor deb ataldi. Hisor 500 gektar bo'lib devor bilan o'ralgan. Shaharga oltita darvozadan kirilgan.

Shaharning ichki qismi mahallalardan iborat bo'lib, guzarlarga birlashgan. Shaharda me'moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutug'i bo'ldi. Me'morchilik taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarildi, inshootlar ko'lami bilan birga uning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muhandislar, me'morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo'ydi. Aynan Temur davriga kelib, gumbazlar tuzilishida qirralar oraliq'i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg'alarga tayangan tashqi gumbazni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi. Ulug'bek davrida gumbaz osti tuzilmalarning yangi xillari ishlab chiqildi. Aniq fanlardagi yutuqlar me'morchilik yodgorliklarida aniq ko'rinadi (Shohizinda, Ahmad Yassaviy, Go'ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasasi). Ularning old tomoni va ichki qiyofasi rejalarini tuzishda me'moriy shakllarning umumiy uyg'unligini belgilovchi geometrik tuzilmalarning aniq o'zaro nisbati bor. Bezak va sayqal ishlari ham bino qurilishi jarayonida baravar amalga oshirilgan.

Temuriylar davri san'atining eng go'zal qismi bu naqqoshlik san'atidir. Sababi,

Temuriylar davrigacha va undan keyin ham Movarounnahr va Xuroson me'morchiligida bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan. Temur va Ulug'bek davri me'morchiligida bezakda ko'p ranglilik va naqshlar xilma-xilligi kuzatiladi. Epigrafik bitiklarni binoning maxsus joylariga, xattotlik san'atini mukammal egallagan ustalar olti xil yozuvda ishlagan. Koshin qatamlarida tasvir mavzui kam uchraydi. Oqsaroy peshtoqlarida Sher bilan quyoshning juft tasviri uchraydiki, bu ramziy ma'noga ega. Temur va Ulug'bek davrida bino ichining bezagi ham xilma-xil bo'lgan. Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatilgan. Temur davrida qurilgan binolarda ko'k va zarhal ranglar ustun bo'lib, dabdabali naqshlar ishlangan, Ulug'bek davrida Xitoy chinnisiga o'xshash oq fondagi ko'k naqshlar ko'p uchraydi. Amir Temur va Ulug'bek davrida tasviriy san'at turli yo'nalish bo'yicha yuksaldi. Islomda jonli narsalar tasviriga sig'inmaslik tasviriy san'atda naqshning ravnaqiga sabab bo'ldi. O'rta Osiyoda arablar bosqini tufayli to'xtab qolgan devoriy suratlar va umuman tasviriy san'at Temur davrida yangi shakl va mazmunda tiklandi. Miniaturataviriy san'atga ham avvalo naqsh sifatida qaralgan. Temuriylar davrida tiklangan devoriy suratlar esa XVI asrda yana to'xtab qoldi. Samarqanddagi Temuriylarning saroy-qarorgohlarida



qabul marosimlari, jang voqealari, ov manzaralari, xalq bayramlari tasviri tushirilgan devoriy suratlar bo'lgan. Temur, o'g'illari, nabiralari, ayollari va kanizaklari tasviri bu devoriy suratlarda aks ettirilgan Ulug'bek devorida ham devoriy suratlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, uslubiy jihatdan miniatyura janriga yaqin bo'lgan.

Temuriylar davrida zamondoshlari tomonidan “Ikkinchi Moniy”, keyinchalik g'arb olimlari tomonidan “Sharq Rafaeli” deb ulug'langan Kamoliddin Behzod ijodi va u asos solgan miniatyura maktabi ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Mashhur tarixchi Xondamir “Habibus – siyar” asarida Behzod san'atiga baho berib: “U qalamining ajoyib mahorati bilan jonsiz narsalarga jon bag'ishlaydi” - degan edi. Har bir saltanat egasi buyuk san'atkor Behzodning o'z huzurida bo'lishini o'zi uchun eng katta boylik, kuch - qudrat manbai va shon-sharaf deb hisoblagan. U yaratgan asarlarda jonli tabiatning bir bo'lagi orqali butun olamni anglash mumkin bo'lgan. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'rta Osiyo mo'g'ullar bosqini davrida vayrona holga kelgan bo'lsa, Temuriylar davriga kelib, barcha sohalar o'zining yuksak cho'qqisiga erishdi. Amir Temur egallagan hududlaridan mohir usta hunarmandlarni, qo'li gul xattotlarni Samarqandga olib kelib, ijodiy muhit yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. “Temuriylar davri madaniyati va san'ati” / arxiv.uz
2. “Men kim Sohibqiron Jahongir Mirzo” 2007 yil
3. “O'zbekiston tarixi” 7 sinf darslik 2018yil
4. “O'rta Osiyoda Ikkinchi Renessans” Sayidova N.B. 2021 yil

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 12-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000